

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING HUQUQIY SAVODXONLIGINI

### OSHIRISH

Turdiyev Abdulfayz Sherali o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti

Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 3-bosqich talabasi.

Murojat uchun: Tel.+99897-777-71-62 [Abdulfayz2022@gmail.com](mailto:Abdulfayz2022@gmail.com)

Ravshanova Ra’no Raup qizi

Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Murojat uchun: Tel.+99888-008-88-02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14825773>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini oshirishning ahamiyati va ta’lim jarayonidagi o‘rni haqida fikr yuritadi. Yoshlarga erta yoshdan huquqiy bilimlar berish, ularning huquq va majburiyatlarini anglashlari, qonunlarga hurmat ko‘rsatishlari va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishlari juda muhimdir.

**Kalit so‘z:** Ta`lim, huquq, maktab, boshlang‘ich ta`lim, o‘quvchilar, bilim, ko`nikma, malaka, konstitutsiya.

### IMPROVING LEGAL LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Abstract.** This article discusses the importance of enhancing the legal literacy of primary school students and its role in the educational process. It is crucial to provide young children with legal knowledge from an early age so that they can understand their rights and responsibilities, respect laws, and develop a sense of social responsibility.

**Key word:** Education, law, school, primary education, students, knowledge, skills, qualifications, constitution.

### ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

**Аннотация.** Эта статья рассматривает важность повышения правовой грамотности учащихся начальных классов и её роль в образовательном процессе. Очень важно с раннего возраста прививать детям правовые знания, чтобы они понимали свои права и обязанности, уважали законы и чувствовали социальную ответственность.

**Ключевые слова:** Образование, право, школа, начальное образование, ученики, знания, навыки, квалификация, конституция.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab yoshlarning barkamolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va mas’uliyatli bo’lishini ta’minlash, shuningdek, milliy istiqlolni qadrlash, milliy qadriyatlarga chuqur hurmat ko’rsatish va vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom avlod yetishtirish yo'lida bir qator muhim va tizimli ishlarni amalga oshirdi. Bundan tashqari, yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur huquqiy asoslar ham yaratildi.

Konstitutsiyaviy huquq asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuasi bo'lib, huquq tizimining eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy-hududiy tuzilishi, shuningdek, davlatning fuqarolik jamiyatni institutlari bilan munosabatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishning asosiy tamoyillari, davlat hokimiyati organlari tizimi va ularning vakolatlari kabi masalalarni belgilaydi. Ba'zi mamlakatlarda bu huquqiy sohani aniqlash uchun "davlat huquqi" tushunchasi qo'llaniladi.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, unda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari e'lon qilinadi, e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Shuningdek, Konstitutsiyada davlat boshqaruvi shakli, hududiy tuzilishi, markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ularning vakolatlari, qonunchilik, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining tuzilishi, saylov tizimi, davlat ramzlari va Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartibi kabi masalalar belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining huquqiy savodxonligini oshirish, hozirgi zamon ta'lim tizimi uchun juda muhim masalalardan biridir. Huquqiy savodxonlik, insonning o'z huquq va erkinliklari haqida bilimga ega bo'lishi va ushbu bilimni amalda qo'llay olishini anglatadi. Bu nafaqat fuqarolik va demokratik jamiyatni shakllantirishda, balki bolalar va o'smirlarni sog'lom axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun huquqiy savodxonlikni oshirish, ularning erkli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan asoslardir. Bolalar, yoshlar, kelajakda jamiyatda o'z huquq va majburiyatlarini to'g'ri tushunishi,adolat, tenglik, va demokratiya prinsiplariga hurmat ko'rsatishi uchun ta'lim olishlari zarur. Ta'lim jarayonida bolalar huquqni, erkinlikni, majburiyatni, va jamiyatdagi o'rni haqida umumiy tushunchalarni o'zlashtirishi kerak.

Boshlang'ich ta'limda bolalar uchun huquqiy ta'lim nafaqat yuridik tushunchalar, balki ijtimoiy hayotga oid asosiy qadriyatlarni o'rgatishga ham qaratilgan bo'lishi lozim. Masalan, adolatli bo'lish, qonunlarga hurmat, tenglikka erishish, va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar, bolalarga nafaqat huquqiy, balki axloqiy jihatdan ham to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Huquqiy savodxonlikni oshirish, bolalarga qonunlarni hurmat qilishni o'rgatishning samarali usuli bo'lishi mumkin. O'quvchilar jamiyatda yuzaga keladigan turli holatlar, masalan, qoidalarga rioya qilish yoki huquqni buzish holatlarini tushunib yetadi.

Bu ularni qonunlarni buzishning salbiy oqibatlari haqida ogohlantiradi va yurtni rivojlantirishda o‘z mas’uliyatini tushunishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini oshirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Har bir bosqichda o‘quvchilarga huquqiy bilimlarni oddiy va tushunarli shaklda yetkazish, ularning huquq va majburiyatlarini anglashiga yordam berish zarur.

Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini oshirishning asosiy bosqichlari keltirilgan:

- **Boshlang‘ich tushunchalar bilan tanishtirish.** Ushbu bosqichda o‘quvchilarga huquq, erkinlik, majburiyatlar va qonunlar haqida umumiyligi tushunchalar berish lozim. Ular huquqiy atamalar bilan tanishishadi, masalan, "huquq", "majburiyat", "adolat", "qonun", "tenglik", "yordam so‘rash" kabi so‘zlarning ma’nosini o‘rganadilar. Bu bosqichda huquqiy savodxonlikning asosiy prinsiplarini tushunishlari kerak.

- **Jamiyatda o‘z o‘rnini tushunish.** Bu bosqichda o‘quvchilarga jamiyatda o‘z huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri tushunish va ularga rioya qilishni o‘rgatish kerak. O‘quvchilar adolat, tenglik, ijtimoiy mas’uliyat haqida ko‘proq bilim olishadi. Ular shuningdek, o‘z huquqlarini himoya qilish va boshqalarning huquqlariga hurmat ko‘rsatish haqida tushuncha olishadi.

- **Huquqiy fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantirish.** Bu bosqichda o‘quvchilarga huquqiy muammolarni hal qilishda o‘z fikrini erkin bildirish va adolatli qarorlar qabul qilishni o‘rgatish lozim. O‘quvchilar qonunlarga, me’yorlarga, qoidalarga rioya qilishni o‘rganadilar va hayotiy misollar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar. Bu, o‘quvchilarga kelajakda huquqiy va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga yordam beradi.

- **Qonunlar va erkinliklarni chuqur tushunish.** Bu bosqichda o‘quvchilar huquqiy tizimni va uning qanday ishlashini yaxshiroq tushunishadi. Ular, huquqni himoya qilish, adolatni ta’minlash va qonunlarni hurmat qilishning muhimligini o‘rganadilar. Ushbu bosqichda huquqiy bilimlarni yanada chuqurlashtirish va amaliyotda qo‘llashga e’tibor qaratiladi.

Huquqiy savodxonlikni oshirish, bolalarni qonunlarga hurmat ko‘rsatish, o‘z huquqlarini himoya qilish va boshqalarning huquqlariga e’tibor berishga o‘rgatadi. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni, adolatni va demokratiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinfdagi huquqiy savodxonlikni oshirishning bosqichli yondashuvi, o‘quvchilarga huquqiy bilimlarni aniq va tushunarli shaklda yetkazish, tanqidiy fikrlash va adolatli qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi.

Shu bilan birga, huquqiy savodxonlik bolalarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi, ular jamiyatning faol va adolatli a’zolariga aylanishlariga imkon yaratadi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy savodxonligini oshirish jamiyat uchun uzoq muddatli foyda keltiradi, ularni nafaqat qonunlarga hurmat ko‘rsatishga, balki sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga ham undaydi.

**REFERENCES**

1. A.Musurmonova., X.Ibragimov. Umumiyl pedagogika. "Yoshlar Nashriyot uyi" T.: 2020
2. R.A.Mavlonova., N.H.Rahmonqulova. Umumiyl pedagogika. "Fan va texnologiya" T.: 2018
3. R.A.Mavlyanova., N.H.Raxmankulova. Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. "Voris-Nashriyot" T.: 2013
4. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O'quv qo'llanma. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2013.